



SAMARQANDDA MILLIY TEATRNING SHAKLLANISHIDA TASHQI MADANIY ALOQALARNING TA'SIRI

Shodiyev L,
SamDU magistranti

ABSTRACT.

In this proverb, the emergence of the first national theaters in the Turkestan territory, external factors that influenced the formation of theatricalism in the territory. Tour tours of Azerbaijan, Iran and Russian theater troupes throughout the country, the role of these tours in the emergence of national theaters in the country. Samarkad talks about the emergence of the original jadid National Theatre, the staging of Mahmudhaja Behbudi's "Padarkush" peso, and its influence in the formation of the National Theatre in the country.

ABSTRACT.

Ushbu maqalada Turkiston o'lkasida dastlabki milliy teatrlarning vujudga kelishi, o'lkada teatrchilikning shakllanishida ta'sir ko'rsatgan tashqi omillar. Ozarbayjon, Eron va Rus teatr truppalarning o'lka bo'ylab gastrol safarlari, bu gastrol safarlarni o'lkada milliy teatrlarning paydo bo'lishida tutgan o'rni. Samarqadda dastlabki jadid milliy teatrining paydo bo'lishi, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pesasini sahnalashtirilishi va uning o'lkada milliy teatrning shakllanishida ko'rsatgan ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Padarkush, Oldaduk ham oldanduk, To'y, Doshim-doshim, Ko'xna Turkiya, Xoji Qora, Sharq Advakati, Aliasgar Asqarov, Mahmudxo'ja Behbudi, Xoji Muin, Sidqiy Ruhillo,

O'zbek milliy teatri va drammaturgiyasining shakllanishi, bevosita ijtimoiy-hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli paydo bo'lgandir. XIX asrning oxirlari XX asr boshlariga jamiyat hayotida eng ilg'or fikrli qatlamlar qarashlarini aks ettirgan milliy uyg'onish muayyan mafkura sifatida, birinchi o'rinda ma'rifatparvarlik sohasida ko'rinadi. Mana



shunday mafkuraning haqiqiy jarchilari bo'lgan jadidlar keng miqiyosli amaliy faoliyat bilan o'zlarining g'oyalarini jamiyat hayotiga kengroq qaror toptirishga harakat qilgandirlar.

Turkiston o'lkasida milliy teatrning shakllanish tarixiga nazar tashlasak shunga guvoh bo'lish mumkinki, Turkiston o'lkasida teatrning shakllanishiga ham tashqi omillarning ham bevosita ta'siri bo'lgan. O'lkadagi dastlabki teatr to'garaklari XIX asrning ikkinchi yarmidan tashkil etilgan bo'lib, Podsho hukumatining o'lkadagi rasmiy nashri bo'lgan "Туркестанские ведомости" gazetasida yozilishicha rus arxitektori hisoblangan S. V. Lexanov, uning turmush o'rtog'i M. G. Lexanova va N. F. Ulyanovlar birinchi marotaba Toshkentda 1867-yilda dastlabki havaskorlar drama to'garagini tashkil etganlar¹³³.

Shuningdek Samarqandda 1876-yilda musiqalidrama to'garagi, 1890-yilda esa havaskorlik jamiyati tuziladi¹³⁴. Shu darvda Qo'qon shahrida ham dramatik san'at havaskorlari to'garagi tashkil etilgan bo'lib, ushbu to'garaklar qisqa vaqt ichida Yevropa va rus dramaturgiyasi mumtoz shakllarini sahnalashtirgandirlar. Jumladan Toshkent to'garagi A. N. Ostrovskiy asarlarini, sahnalashtirgan bo'lsa, Samarqand havaskorlari esa A. N. Ostrovskiy asarlari qatorida L.N. Tolstoy pesalarini ham sahnalashtiradilar.

1877-yilning oktabr oyida F. I. Nadler rahbarlik qilgan rus teatr jamoasi Rossiyadan o'lkaga tashrif buyurib, A. F. Pesemiskiyning "Mash'um taqdir" pesasini sahnaga moslashtirib "Военное собрание" binosida namoyish qilgan. XIX asrning 80 yillaridan boshlab toki 1917-yilgacha Turkiston o'lkasida Samarqandda ham Rossiyadan Vasilev Vyatskiy (1890-1896 yillar), N. D. Kruchinina (1894-1899 yillar), V. I. Yakov (1900-1903 yillar), Z. A. Malinovskaya (1903-1917 yillar), N. P. Kazanskiy (1904-1906 yillar), M. C. Kojevnikov (1907-1908 yillar), V. F. Komissarjevskaya (1910 yil), M. Shumskaya (1912-1913 yillar), A. S. Kostanyan (1913-yilda), D. X Yujin (1916 yilda), L. V. Sobinov (1912-1915 yillarda) kabi tashkilotchi san'atkorlarning teatr hamda konsert jamoalari kelib,

¹³³ Туркестанские ведомости” 1903 й. 23 июль.

¹³⁴ Шухрат Ризаев Жадид драмеси Т-1997 й. 22 бет.



Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Xo'jand, Marg'ilon, Ashxabot, Chorjo'y kabi shaharlarda spektakllar ko'rsatganlar va musiqiy kechalar tashkil etganlar¹³⁵.

Turkiston o'lkasiga 1880-1917 yillar oralig'ida yuzdan ortiq teatr va musiqa jamoalari gastrollarga kelgan. G'arb mamlakatlarining teatr va musiqa madaniyatining bizning o'lkalarga kirib kelish jarayoni 1905-1907 yillardan boshlab shu qadar kuchayganki, hattoki Gansels rahbarligidagi Italiyan opera truppasi Toshkentga to'rt marotaba gastrol ushishtirib, 1907-1910 yillarda ko'plab spektakllar namoyish qilgandir.

Turkiston o'lkasida Yevropacha teatr va dramaning shakllanishi va yoyilishida Ozarbayjon ziyolilarining xizmatlari beqiyos bo'lgan. Ozarbayjon teatr san'atining yangi shakli ma'rifatparvar Mirza Fatali Ohundov (1812-1878) ning dramatik ijodi natijasida shakllangan bo'lib uning "Qaroqchini yengan ayiq", "Lenkaron xonning vaziri", "Xoji Qora", "Sharq advakati" va boshqa sahna asarlarining ta'siri ostida N. Vazirov, J. Mamadqulzoda, N. Narimonov, A. Axberdievdek jadid dramaturglari yetishib chiqqan. Bular o'z navbatida, o'zbek jadid dramaturgiyasi va teatri tug'ilishi, rivojlanishi uchun beqiyos ta'sir ko'rsatganlar¹³⁶.

Ozarbayjonlik aktyorlar ilk bora Turkistonga kirib kelishi 1911 yilga to'g'ri kelgan bo'lib, Sidqiy Ruhillo, Ahmadbek Kamarliniskiy, Husayn Arabliniskiy kabi yetuk ozarbayjonlik aktyorlar Samarqandda va boshqa shaharlarda bo'lib M. F. Ohundovning "Hoji qora", A. Haqberdievning "Og'a Muhammad shoh Hojar" I.Turgenevning "Pulsizlik", N. Vezirovning "Yomg'irdan qutilib, selga..." , "Musibati Faxriddin", N. Narimonovning "Nodirshoh" tarixiy dramasi kabi spektakllarni sahnada namoyish qilganlar.

Yuqorida nomlari sanab o'tgan aktyorlardan so'ng Turkistonga tashrif buyurgan Ozarbayjonlik rejissor va aktyor Aliasqar Asqarovning o'lka milliy teatrining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. A. Asqarov o'z

¹³⁵ *Шухрат Ризаев* Жадид драмаси Т-1997 й. 22 бет.

¹³⁶ *Шухрат Ризаев* Жадид драмаси Т-1997 й. 22 бет.

truppasi bilan ozarcha spektakllarni qo'yish qatorida, yerli xalq vakillarini sahna sanatiga jalb etishda jonbozlik ko'rsatadi¹³⁷.

Samarqandlik yetuk ma'rifatparvar Behbudiy tomonidan "Padarkush" dramasi 1913-yildagina bosib chiqadi. Ushbu asar o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir¹³⁸.

A. Asgarovning rejissyorligida ilk sahna asari "Padarkush"ning umri boshlangan bo'lib, keyinchalik Toshkent, Qo'qon, Namangan va Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda sahnalashtirgan spektakllarning rejissori ham A. Asqarov bo'lgan.

Samarqandning ruslar yashayotgan qismida 4-iyul kuni Bokudan kelgan Mirakbar Xontalshiniskiy "Ko'hna Turkiya" fojeasi, "Doshim-doshim" va "Tursunali va Balibodi" kabi sahna asarlari, jumladan "Ko'hna Turkiya" fojiasi Turkistonlik, Kavkaz, Eron va Tatar musulmon tomoshabinlari tomonidan olqishlanib muoffaqiyat qozongan.

Rus, ozarbayjon, tatar taetrlarining tub yerli ziyoli ma'rifatparvarlarga ta'siri, amaliy yordamlari haqida alohida to'xtalsak, bu ta'sir va amaliy yordamsiz o'zbek jadid teatri va dramaturgiyasi shakllanishi mumkin emas edi. XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan jadid dramasi shakllanishi bevosita tashqi madaniy aloqalar negizida shakllangani yuqoridagi ma'lumotlarda keltirib o'tdik.

XX asrning 10-yillaridan boshlab Turkiston madaniy hayot tarixida yangi o'zbek milliy teatrlarining ham vujudga kelish davri bo'lib kiradi. Millatni ma'rifat nuri bilan uyg'otib, taraqqiyot va milliy ozodlik tantanasi bilan orzulangan jadid ma'rifatparvarlarining xalqni uyg'otishga ma'rifatli qilishga buyuk amallardan biri sifatida teatr deb hisoblagan holda shu yo'lda samarali faoliyat olib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirganimizdek Turkiston o'lkasida rus, tatar va ozarbayjon teatr truppalarning kirib kelishi o'zbek milliy teatr san'atining antik davrlarda vujudga kelgan

¹³⁷ *Шухрат Ризаев* Жадид драмеси Т-1997 й. 24 бет.

¹³⁸ "Махмудхужа Вехбудий таввалудининг 145-йиллигига бағишланган библиографик кулланма. Сам. 2020 й 4-б



yunon teatri ko'rinishidagi teatr madaniyati oradan ikki ming yildan ko'proq vatq o'tib mazmun ham shakl jihatdan keskin o'zgarishlarga uchrab, yangitdan tug'ilish uchun muhim omil bo'lgandir¹³⁹.

Ijtimoiy-tarixiy jarayon taqqazosi bilan yo'qolib, o'z o'rnini qiziqchi va masxarabozlarga tomoshalariga bo'shatib bergan ellin teatri madaniyati keying davr Yevropa taetri taraqqiyotiga zamin bo'lib, uning tarkibiga singib o'zgarib, ular vositasida o'zining eng qadimiy maskanlaridan bo'lgan Markaziy Osiyoga yana qayta boshlaydi.

Umuman, teatr masalasiga e'tibor XX asrning 10-yillarda juda kuchli bo'lgan. Podsho hukumatining Turkiston o'lkasidagi rasmiy nashri bo'lgan "Turkiston viloyati gazetasi" dan boshlab, "Sadoyi Farg'ona" va "Sadoyi Turkiston" gazetalarida ham hattoki Oyina jurnalidagi maqolalarda uchratish mumkin. Bunday maqolalar mahalliy ziyolilarni taetrichilik harakatiga dav'at qilsa xalqni shunday madaniyat o'choqlaridan bahramand bo'lishiga targ'ib etganligini ko'rishimiz mumkin.

Endi Samarqandda jadid milliy teatrining shakllanishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy 1911-yilda dastlabki sahna asari bo'lmish "Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi" 3 ta pardali va 4 manzarali bo'lgan milliy asari ya'ni birinchi fojiali asarini yozadi. Ushbu asarni nashr qilish xususidagi urinishlari ikki yilgacha muoffaqiyatsiz kechganligini ko'rishimiz mumkin. Faqat pesani 1812-yili rus-fransuz urushining 100 yilligiga bag'ishlab Tiflisdagi senzorga yuborilishi asarni nashr qilish uchun imkon bo'lgan. Matbuot ishlari Tiflis qo'mitasi senzori ruxsati bilan Kavkaz o'lkasi sahnalarida qo'yish mumkin degan 1913-yil 23-martdagi 19940-sonli qarorga ko'ra ushbu asar 1913-yili Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi¹⁴⁰.

Padarkush asarining nashr etilishi bu bevosita aytish mumkinki, o'zbek milliy jadid teatrining tug'ilishini belgilab berganligini ko'ramiz. Shuni o'zi ham Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining shakllanishida Samarqand ma'rifatparvarlarining o'rni qay

¹³⁹ Шухрат Ризаев Жадид драмаси Т-1997 й. 51бет.

¹⁴⁰ Шухрат Ризаев "Жадид драмаси" Т-1997 й. 53 б.

darajada bo'lganligidan dalolat beradi deb bemalol aytishimiz mumkin. 1913-yilning o'zidayoq Samarqandda Behbudiy, Toshkentda Munavvar qori va A. Avloniy rahbarligida asarni sahnalashtirish ishlari boshlangan. Samarqandning yosh o'zbek va tatar taraqqiyparvarlari bir bo'lib, o'zbekcha "Padarkush" va tatarcha "Oldaduh ham oldaduh" asarlarini Samarqand qiroatxonai islomiya nafiqa 1914-yilning 15-yanvar oqshomida qo'ymoqchi bo'ldilar. Shijoatli o'zbek va tatarlar birlashib, Xo'qand Buxoro va boshqa Turkiston shaharlarida milliy teatr ko'rsatishni niyat qilganlar. Idoraga kelgan maktublarga qaraganda Xo'qand va Toshkent "Padarkush" fojiasini sahnada mashq qilmoq emishlar. Agarda g'ayratlik yoshlar milliy teatrga rivoj bersalar, yana boshqa asarlarda tartib va nashr qilinur¹⁴¹.

Dekam "Padarkush" asarining e'lon qilinishi va sahnalashtirilishi faqatgina Mahmudxoja va boshqa ziyoli jadid ma'rifatparvarlari uchun muhim bir hodisa bo'libgina qolmay, Butun o'lkada ijtimoiy-madaniy hayotning yanada rivoji uchun, teatr havaskorlari negizida yangidan-yangi ma'rifatchi teatr truppa jamoalari vujudga kelishi uchun ham turtki bo'lgan.

Shunday ekan "Padarshush" pesasini ilk bor havaskorlar tomonidan 1914-yil 15-yanvar kuni Samarqandning yangi shahar qismida namoyish etiladi¹⁴². Shu munosabat bilan "Turkistonda birinchi milliy teatr" hamda "padarkush" ketidan tatar turuppasi qo'yan "Oldaduh ham oldanduh" nomli tatarcha teatr haqida "Oyina" jurnalining 14-15 sonlarida axbarot taqrizlar e'lon qilinadi¹⁴³.

"Oyina" jurnali mazkur sonlarida "Padarkush" fojiasi ilk bor sahnalashtirilganda nihoyatda yaxshi sahnalashtirgan aytilib, teatr ibratxonasiga minglab xalq kirishga oshiqqanligi, 320 ta o'rinlik taetr zaliga yana 50 kishilik joy qilinganligi va biletlar esa baland narxlarda avvaldan sotilib bo'linganligi haqida ham ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

¹⁴¹ Самарқадда тиётру – "Ойна" журналі 1913-й. 10-сон. 234 б.

¹⁴² Шухрат Ризаев "Жадид драмаси" Т-1997 й. 54 б.

¹⁴³ "Ойна" журналі 1914-й. 15-сон.

Asarni sahtalashtiruvchi rejissyor haqida ma'lumotlar deyarli uchratishimiz qiyin lekin, Jadid teatri tarixini birinchilardan bo'lib taxlil etgan Ozarbayjonlik Aliasqar Asqarovning xizmatlari ta'siri katta bo'lgan.

Xulosa: Xusosa sifatida shuni ko'rish mumkinki Turkiston olkasida milliy teatrning shakllanishida Ozarbayjon, tatar, rus va yevropa teartining ta'siri katta bo'lgan. Ushbu teatr jamoalarining Turkiston o'lkasi bo'ylab gastrol safarlari o'lkada milliy teatr shakllanishida muhim bosqich bo'lgan. M. Behbudiy tomonidan "Padarkush" pessasining ilk namoyishi bu Samarqandda teatr havaskorlarining ijodiy jiplashuvi va truppa shaklida jiplashuvi uchun turtki bo'lgan eng muhim omil bo'lgandir. Ushbu sahna asarining ilk muvofaqiyati butun o'lkada ketma-ketlikda barcha yirik shaharlarda sahnalashtiriladi. Behbudiyning ushbu pesasi natijasida butun o'lka bo'ylab ko'plab asarlar sahnalashtiriladi. Buxoroda Fitratning "Hindistonda bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning munozaralar", Toshkentda A. Avloniy, "Advakatlik osonmi, Qo'qonda Xamza tomonidan sahnalashtirilgan Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari, va boshqalar o'zlarining sahna asarlarini yaratib sahnalashtiriladi. Samarqandda esa Behbudiydan keyin teatr sohasiga ulkan hissa qo'shgan shaxs uning shogirti jadid ma'rifarparvari Xoji Muin hisoblanadi. Uning "To'y, "Mazluma xotun", "Juvonbozlik qurboni", "Boy ila xizmatkor", "Qozi ila muallim" kabi asarlari o'zbek milliy dramaturgiyasining keyingi bosqichidagi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- Шухрат Ризаев. Жадид драмаси. Тошкент-1997 й.
- Туркистон вилояти газети. 1910 й. 4-февраль
- Ойина" журналы 1914-й. 15-сон.
- "Махмудхужа Бехбудий таввалудининг 145-йиллигига багишланган библиографик кулланма. Самарканд. 2020 й.
- Туркестанские ведомости" 1903 й. 23 июль.
- Naim Karimov. "Махмудхо`ja Bexbudiy" Toshkent 2010 yil.



- 3. Д. А. Алимова Д. А. Рашидова. Махмудхужа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. Т. 1999 й,
- 4. М. Behbudiy. “Tanlangan asarlar” Toshkent “Ma`naviyat” 1999 yil
- У. Долимов. Туркистонда жадид мактаблари Самарканд 2006 й.
- 10.Хожи Муин “Танланган асарлар” Тошкент -2010 й.

